Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

HARBIY JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING XALQARO JINOYATLAR TIZIMIDAGI O‘RNI

Oybo‘tayeva Laylo
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro huquq” fakulteti magistranti.
khudanovalaylo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola harbiy jinoyatlar tushunchasi va ularning xalqaro jinoyatlar tizimidagi o‘rnini tahlil qiladi. Muallif harbiy jinoyatlar ta’rifi, ularning tarixiy ildizlari,Rim statudida belgilangan harbiy jinoyatlarning to’rt nafar ta’rifi hamda kontekstual unsurlarni o‘rganib chiqadi.
Kalit so‘zlar. Rim statuti, qurolli to‘qnashuv,humanitar huquq normalari,urf-odat normalari,toifa,unsur.

Аннотация. В данной статье анализируется понятие военных преступлений и их место в системе международных преступлений. Автор рассматривает определение военных преступлений, их исторические корни, четыре категории военных преступлений, закреплённые в Римском статуте, а также их контекстуальные элементы.
Ключевые слова: Римский статут, вооружённый конфликт, нормы международного гуманитарного права, нормы обычного права, категория, элемент.

Abstract. This article analyzes the concept of war crimes and their place within the system of international crimes. The author examines the definition of war crimes, their historical origins, the four categories of war crimes established under the Rome Statute, as well as their contextual elements.
Keywords: Rome Statute, armed conflict, norms of international humanitarian law, customary law norms, category, element.

Kirish. Harbiy jinoyatlar xalqaro jinoiy huquqning eng qadimiy va eng murakkab kategoriyalaridan birini tashkil etadi. Genotsid yoki insoniyatga qarshi jinoyatlardan farqli o‘laroq, harbiy jinoyatlar har doim qurolli to‘qnashuv kontekstida sodir etiladi .Bu xususiyat ularni tinchlik davrida sodir etilishi mumkin bo‘lgan boshqa xalqaro jinoyatlardan ajratib turadi va shu sababdan harbiy jinoyatlarning ta’rifini, mohiyatini va tabiatini chuqur tushunish xalqaro huquq amaliyoti uchun fundamental ahamiyatga ega.

Zamonaviy xalqaro huquqda harbiy jinoyatga umumiy qabul qilingan ta’rif quyidagicha berilgan: harbiy jinoyat bu qurolli to‘qnashuvda qo‘llaniladigan qonunlar va urf-odatlarning jiddiy buzilishi bo‘lib, xalqaro huquq bo‘yicha jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi[1].Bu ta’rif uchta o‘zaro bog‘liq unsurni o‘z ichiga oladi: (a) qurolli to‘qnashuv mavjudligi; (b) xalqaro humanitar huquq normalarining buzilishi; va (c) ushbu buzilishning jiddiyligi darajasi.

Antonio Kassese o‘zining mashhur “International Criminal Law” asarida harbiy jinoyatni “xalqaro gumanitar huquqning urf-odat yoki shartnoma normalari korpusiga taalluqli jiddiy buzilishi” deb ta’riflaydi [2].Bu ta’rif Yugoslaviya bo‘yicha Xalqaro jinoiy tribunal (ICTY)ning Tadic ishidagi belgilab bergan to‘rt mezoniga asoslanadi[3]:Birinchidan, buzilish xalqaro humanitar huquq normasining buzilishini tashkil etishi kerak. Ikkinchidan, bu norma urf-odat huquqiga tegishli bo‘lishi yoki, agar shartnoma normasi bo‘lsa, kerakli shartlar bajarilishi kerak. Uchinchidan, buzilish “jiddiy” bo‘lishi kerak, ya’ni u muhim qadriyatlarni himoya qiluvchi normalarni buzishi va qurbon uchun jiddiy

[1] https://www.law.cornell.edu/wex/war_crime
[2] Antonio Cassese, International Criminal Law, Oxford University Press p 81
[3] ICTY, Prosecutor v. Tadić, Decision on the Defence Motion for Interlocutory Appeal on Jurisdiction, IT-94-1-AR72, 2 October 1995, para. 94

oqibatlarni keltirib chiqarishi shart. To‘rtinchidan, urf-odat yoki shartnoma huquqiga ko‘ra buzilish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi kerak.

Harbiy jinoyatlar tushunchasining tarixiy rivojlanishi besh asrlik uzoq yo'lni bosib o'tib, qadimgi axloqiy g'oyalardan zamonaviy huquqiy kodifikatsiyaga qadar uzluksiz takomillashib bordi.Endilikda mana shu jarayonni ko‘rib chiqamiz:

Antik va o'rta asrlardagi ildizlar. Garchi “harbiy jinoyat” tushunchasi zamonaviy huquqiy atama bo'lsa-da, urushdagi xulq-atvor cheklovlari g'oyasi Hindistonning “Manu qonunlari”, Sun Szining “Urush san'ati”, islom huquqidagi “siyar” va o'rta asr Yevropasidagi ritsarlik kodekslari hamda “Xudo tinchligi” (Pax Dei) institutlarida ifodalangan.

Harbiy jinoyatlar tushunchasining zamonaviy rivojlanishidagi haqiqiy burilish nuqtasi 1863-yilda yuz berdi. Amerika fuqarolar urushi davrida prezident Avraam Linkoln nemis-amerikalik huquqshunos Frensis Liber tomonidan tayyorlangan “Maydondagi Qo‘shma Shtatlar armiyalarini boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar”, ya’ni 100-sonli Bosh buyruqni imzoladi[4].Liber kodeksi sifatida tanilgan bu hujjat urush qonunlarini kodifikatsiyalashning birinchi tizimli urinishi edi.

Liber kodeksi. 157 ta moddadan iborat bo‘lib, harbiy holat, harbiy yurisdiksiya, ayg‘oqchilar va dezertirlarga munosabat, harbiy asirlar maqomi, fuqarolarni va fuqarolik mulkini himoya qilish va bosib olingan hududlardagi aholiga insonparvarlik munosabati to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan edi [5]. Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasi (XQXQ)ning ta’rifiga ko‘ra, “Liber ko‘rsatmalari urush qonunlarini kodifikatsiyalashning birinchi urinishini ifodalaydi” va ular “urush qonunlarining keyingi kodifikatsiyasiga va boshqa davlatlar tomonidan shunga o‘xshash qoidalarning qabul qilinishiga katta ta’sir ko‘rsatdi”[6]. Buyuk Britaniya, Fransiya va Prussiya hukumatlari Liber kodeksini shu darajada ta’sirchan deb topdiki, ularning ko‘pchiligi uni o‘z milliy harbiy qonunchiligida qabul qildi.

Buyuk Britaniya, Fransiya va Prussiya hukumatlari Liber kodeksini shu darajada ta’sirchan deb topdiki, ularning ko‘pchiligi uni o‘z milliy harbiy qonunchiligida qabul qildi.

Gaaga konvensiyalari (1899 va 1907). 1899 va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalari urush olib borishni tartibga soluvchi birinchi ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalar bo‘lib, ularda harbiy jinoyatlar tushunchasi rasmiy xalqaro huquqiy maqomga ega bo‘ldi. 1907-yilgi IV Gaaga konvensiyasiga ilova qilingan “Quruqlikdagi urush qonunlari va urf-odatlari to‘g‘risidagi Nizom” o‘sha vaqtgacha mavjud bo‘lgan urush huquqining eng to‘liq kodifikatsiyasi edi va u quyidagi muhim tamoyillarni o‘z ichiga oldi[7].

Nyurnberg va Tokio tribunallari: yangi paradigma. Nyurnberg va Tokio tribunallari harbiy jinoyatlar tushunchasi rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Nyurnberg Statutining 6(b)-moddasi harbiy jinoyatlarni quyidagicha ta’rifladi: “urush qonunlari yoki urf-odatlarini buzish. Bunday buzilishlarga, jumladan, lekin ular bilan cheklanmasdan, fuqarolik aholisini qul mehnatiga yoki boshqa maqsadlarda qotillik, yomon munosabat yoki bosib olingan hududda yoki undan deportatsiya qilish; harbiy asirlar yoki dengizdagi shaxslarni qotillik yoki yomon munosabat; garovga olinganlarni o‘ldirish; davlat yoki xususiy mulkni talon-taroj qilish; shahar, qishloq yoki posyolkalarni betartib vayron qilish yoki harbiy zaruriyat bilan oqlanmaydigan vayrongarchilik” .

Nyurnbergning eng muhim hissasi shu ediki, u xalqaro huquq buzilishi uchun shaxsiy javobgarlik tamoyilini o‘rnatdi. Tribunal o‘zining hukmida shunday yozdi: “Xalqaro huquqqa qarshi jinoyatlar mavhum sub’ektlar tomonidan emas, balki odamlar tomonidan sodir etiladi, va faqat shunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jazolash orqaligina xalqaro huquq normalarini ijro etish mumkin[8]”

1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va “jiddiy buzilishlar” rejimi

[4] Hartigan, R. S. (1983). Lieber's Code and the Law of War p 45
[5] Lieber Institute West Point. (2024). Occupation Resistance, War-Rebels, and the Lieber Code.

[6] https://civilwarsaga.com/african-american-pows-lieber-code/
[7] Hague Convention (IV) Respecting the Laws and Customs of War on Land and its Annex
[8] https://www.legal-tools.org/doc/45f18e/

Ikkinchi jahon urushidan keyin 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan to‘rtta Jeneva konvensiyasi harbiy jinoyatlar huquqida yangi davrni boshlab berdi. Konvensiyalar urushda jabrlangan toifalarni himoya qilishga qaratilgan: (I) maydondagi yaradorlar va kasallar; (II) dengizdagi yaradorlar, kasallar va kemasi halokatga uchragan dengizchilar; (III) harbiy asirlar; (IV) urush davridagi tinch fuqarolar.

Jeneva konvensiyalarining eng muhim yangiligi bu “jiddy buzilishlar” (grave breaches) rejimi edi. To‘rt konvensiyaning har birida (I konvensiyaning 50-moddasi, II konvensiyaning 51-moddasi, III konvensiyaning 130-moddasi va IV konvensiyaning 147-moddasi) “jiddiy buzilishlar” deb tasniflanadigan jinoyatlarning aniq ro‘yxati keltirilgan. Bu jinoyatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qasddan o‘ldirish; qiynoq yoki noinsoniy munosabat, jumladan, biologik tajribalar; katta azob-uqubat yoki badan yoki sog‘liqqa jiddiy zarar yetkazishni qasddan amalga oshirish; harbiy zaruriyat bilan oqlanmagan va qonunga xilof va o‘zboshimchalik bilan amalga oshirilgan mulkni keng miqyosda vayron qilish va o‘zlashtirish; harbiy asir yoki himoyalangan shaxsni dushman davlat qurolli kuchlarida xizmat qilishga majburlash; harbiy asir yoki himoyalangan shaxsni adolatli va muntazam sud huquqlaridan qasddan mahrum qilish; noqonuniy deportatsiya yoki ko‘chirish yoki noqonuniy qamoqqa olish; garovga olish[9].

“Jiddiy buzilishlar” rejimi inqilobiy ahamiyatga ega edi, chunki u universal yurisdiksiya tamoyilini o‘rnatdi. Konvensiyalarning 49, 50, 129 va 146-moddalariga muvofiq, har bir Davlat-ishtirokchisi jinoyat sodir etgan shaxslarni izlash va ularning fuqaroligi yoki jinoyat sodir etilgan joyidan qat’i nazar, ularni o‘z sudlarida sud qilish yoki sud qilish uchun boshqa davlatga topshirish majburiyatini o‘z zimmasiga oldi. Bu printsip aut dedere aut judicare (“yoki ekstraditsiya qil, yoki sud qil”)harbiy jinoyatlar bilan kurashishning hozirgi xalqaro huquqiy arxitekturasining poydevoridir.

Keyingi masala bu harbiy jinoyatlarning subyektiv va obyektiv unsurlaridir. Har bir harbiy jinoyat moddiy unsurlar (actus reus) va aqliy unsur (mens rea) tarkibini o‘z ichiga oladi. XJSning “Jinoyatlar unsurlari” hujjati bularning har birini batafsil belgilab beradi.

Umumiy kontekstual unsurlar (chapeau elements*)*:Rim Statutining 8-moddasi bo‘yicha har qanday harbiy jinoyatni isbotlash uchun ikkita umumiy unsur isbotlanishi kerak: (a) xatti-harakat qurolli to‘qnashuv kontekstida sodir etilgan va u bilan bog‘liq bo‘lgan; (b) jinoyatchi qurolli to‘qnashuv mavjudligini belgilab beradigan faktik holatlardan xabardor bo‘lgan.

Muhimi shundaki, jinoyatchi to‘qnashuv xalqaro yoki xalqaro bo‘lmagan xarakterga ega ekanligini tushunishi shart emas u faqat to‘qnashuv mavjudligi haqida xabardor bo‘lishi kerak. Yugoslaviya bo‘yicha Tribunal Tadic ishida qurolli to‘qnashuv “davlatlar o‘rtasida qurol kuchi qo‘llanilganda yoki hukumat organlari va uyushgan qurolli guruhlar o‘rtasida yoki davlat ichidagi shunday guruhlar o‘rtasida uzoq muddatli qurolli zo‘ravonlik bo‘lganda” mavjud bo‘ladi deb belgilab berdi.

Aqliy unsur (mens rea). Rim Statutining 30-moddasi shuni belgilab beradiki, agar boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, shaxs jinoiy javobgarlikka faqat moddiy unsurlar niyat (intent) va bilim (knowledge) bilan sodir etilgan taqdirdagina tortiladi. Niyat ikki shaklda namoyon bo‘ladi: harakatga nisbatan shaxs ushbu harakatni sodir etishni nazarda tutadi; oqibatga nisbatan shaxs bu oqibatni keltirib chiqarishni nazarda tutadi yoki oddiy holatlar yo‘nalishida bu sodir bo‘lishini biladi[10]. Ba’zi harbiy jinoyatlar muayyan ruhiy holatni talab qiladi. Masalan, “qasddan o‘ldirish” (wilful killing) jinoyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri niyatni talab qiladi, “vayron qilish” esa beparvolikni o‘z ichiga olishi mumkin. “Qiynoq” jinoyati qurbon ustidan jismoniy yoki ruhiy og‘riq yoki azob-uqubat yetkazishning muayyan maqsadini talab qiladi.

So‘ngi masala harbiy jinoyatlarni boshqa xalqaro jinoyatlardan farqi. Harbiy jinoyatlar uchta boshqa xalqaro jinoyatlar genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar va tajovuz jinoyati bilan birga “yadroviy xalqaro jinoyatlar” (core international crimes) toifasiga kiradi. Biroq harbiy jinoyatlar bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, harbiy jinoyatlar har doim qurolli to‘qnashuv

[9] Dörmann, K. (2003). Elements of War Crimes under the Rome Statute of the International Criminal Court: Sources and Commentary. Cambridge: Cambridge University Press.
[10] Werle, G., & Jessberger, F. (2014). Principles of International Criminal Law (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press

kontekstida sodir etilishi kerak. Bu ulardan genotsid va insoniyatga qarshi jinoyatlarni ajratib turadi bu jinoyatlar tinchlik davrida ham sodir etilishi mumkin. Ikkinchidan, harbiy jinoyatlar uchun “keng miqyosli yoki tizimli hujum”(insoniyatga qarshi jinoyatlar uchun talab qilingan) yoki “muayyan guruhni butunlay yoki qisman yo‘q qilish niyati” (genotsid uchun talab qilinadi) kabi qo‘shimcha shartlar talab qilinmaydi har qanday yagona buzilish, agar u jiddiy bo‘lsa, harbiy jinoyatni tashkil etishi mumkin. Uchinchidan, harbiy jinoyatlar an’anaviy ravishda davlat shaxsiy tarkibi (askarlar) tomonidan sodir etiladi, garchi hozirgi vaqtda davlat bo‘lmagan qurolli guruhlar a’zolari ham javobgarlikka tortilishi mumkin[11]. Harbiy jinoyatlarning eng o‘ziga xos huquqiy xususiyatlaridan biri bu universal yurisdiksiya tamoyilining qo‘llanilishidir. Bu printsipga ko‘ra, jinoyat sodir etilgan joydan yoki jinoyatchining fuqaroligidan qat’i nazar, har qanday davlat harbiy jinoyatlar bo‘yicha yurisdiksiyani amalga oshirishi mumkin. Bu printsip 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarining og‘ir buzilishlari rejimida ham mavjud va aut dedere aut judicare majburiyatida ifodalangan. Harbiy jinoyatlarning yana bir muhim xususiyati ularga hech qanday da’vo muddati qo‘llanilmasligi. Rim Statutining 29-moddasi shuni belgilab beradiki, Sud yurisdiksiyasidagi jinoyatlarga hech qanday da’vo muddati qo‘llanilmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki harbiy jinoyatlar tushunchasining besh asrlik evolyutsiyasidir hamda u nafaqat huquqiy kategoriyadir, balki insoniyatning kollektiv axloqiy vijdoni ifodasidir. U urushda hatto eng shafqatsiz holatlarda ham himoya qilinishi kerak bo‘lgan asosiy qadriyatlarni inson hayoti va qadr-qimmati, fuqarolarning xavfsizligi, urush jangchilarining insonparvarlik munosabatlari belgilab beradi. Rim Statuti tomonidan o‘rnatilgan zamonaviy tizim, garchi mukammal bo‘lmasa-da, ushbu qadriyatlarni amaliyotda himoya qilish uchun hozirgacha mavjud bo‘lgan eng kuchli huquqiy mexanizmni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Antonio Cassese, International Criminal Law, Oxford University Press p 81
2. ICTY, Prosecutor v. Tadić, Decision on the Defence Motion for Interlocutory Appeal on Jurisdiction, IT-94-1-AR72, 2 October 1995, para. 94
3. Hartigan, R. S. (1983). Lieber's Code and the Law of War p 45
4. Lieber Institute West Point. (2024). Occupation Resistance, War-Rebels, and the Lieber Code.
5. Hague Convention (IV) Respecting the Laws and Customs of War on Land and its Annex
6. Dörmann, K. (2003). Elements of War Crimes under the Rome Statute of the International Criminal Court: Sources and Commentary. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Werle, G., & Jessberger, F. (2014). Principles of International Criminal Law (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press
8. Cryer, R., Robinson, D., & Vasiliev, S. (2019). An Introduction to International Criminal Law and Procedure (4th ed.)

Foydalanilgan internet manbalar ro‘yxati

1. https://www.law.cornell.edu/wex/war_crime
2. https://civilwarsaga.com/african-american-pows-lieber-code/
3. https://www.legal-tools.org/doc/45f18e/

[11] Cryer, R., Robinson, D., & Vasiliev, S. (2019). An Introduction to International Criminal Law and Procedure (4th ed.)